


**XORAZM VILOYATINING
TASHQI SAVDO AYLANMASI***(2020-yil yanvar-mart)*

Hozirgi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlariga tarqalgan koronavirus (COVID-19) pandemiyasi xalqaro integratsiyaning kamayishiga hamda davlat chegaralarning yopilishiga sabab boʻldi. Bu esa mamlakatning tashqi savdo sohasi hamda aholining turmush darajasiga bevosita oʻz taʼsirini oʻtkazmoqda.


2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 96 555,8 ming. AQSh dollarini tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 94,4 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 37 083,2 ming. AQSh dollarga (4,3 % ga koʻpaygan) va import hajmi 59 472,6 ming. AQSh dollariga (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 89,2 %) ni tashkil qildi. Tashqi savdo saldosini minus 22 389,4 ming. AQSh dollarini tashkil qildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI
(ming. AQSh. dollari)

Soʻnggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qoʻllab-quvvatlash, import oʻrnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli oʻzgarishga erishildi.

dastlabki maʼlumotlar*

**TOVAR VA XIZMATLARNING EKSPORT-IMPORT
KORSATKICHLARI DINAMIKASI**
(ming. AQSh. dollari)



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning mart oyidan buyon deyarli oʻzgarishsiz qolmoqda.

**TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
YUQORI ULUSHGA EGA DAVLATLAR**
(ming. AQSh. dollari)


Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Foizda	
				ulushi	oʻzgarish sur'ati
Rossiya	31 930,8	8 905,3	23 025,5	33,1	182,2
Xitoy	16 189,6	2 962,1	13 227,5	16,8	69,3
Turkiya	10 765,2	5 711,8	5 053,4	11,1	147,8
Qirg'iz Respublikasi	9 267,6	9 155,4	112,2	9,6	72,5
Turkmaniston	2 520,5	1 701,1	819,4	2,6	74,5
Eron	1 934,1	1 208,1	726,0	2,0	49,7

Viloyatimizda tashqi savdoni qoʻllab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 51,5 % ni hamda tashqi savdo aylanmasi oʻtgan yilning

shu davriga nisbatan 114,3 % ni tashkil qildi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2020-yilning yanvar-mart oylarida 48,5 % ni hamda tashqi savdo aylanmasi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 79,7 % ni tashkil qildi.


TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI MDH DAVLATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(ming. AQSh. dollari)



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(ming. AQSh. dollari)




Paxta tolasi	Qora va rangli metallar
Oziq-ovqat mahsulotlari	Mashina va asbob-uskunalar
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	Xizmatlar
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	Boshqalar

EKSPORT TARKIBI

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Ming. AQSh dollari	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	Ming. AQSh dollari	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	Ming. AQSh dollari	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Eksport	37 083,2	104,3	100,0	23 562,5	84,4	100,0	13 520,7	177,2	100,0
Paxta tolasi	2 822,8	4,6 m.	7,6	-	-	-	2 822,8	5,6 m.	20,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	5 965,2	27,4	16,1	4 281,9	23,0	18,2	1 683,3	54,1	12,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	218,7	100,0	0,6	218,7	176,2	0,9	-	-	-
Qora va rangli metallar	497,0	414,2 m.	1,3	497,0	414,2 m.	2,1	-	-	-
Mashina va asbob - uskunalar	82,4	14,7 m.	0,2	82,4	14,7 m.	0,3	-	-	-
Xizmatlar	2 878,7	90,2	7,8	1 967,6	65,3	8,4	911,1	5,1 m.	6,7
Boshqalar	2 4618,4	2,6 m.	66,4	1 6514,9	2,9 m.	70,1	8 103,5	2,2 m.	59,9


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar oyi davomida eng yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTNING O'SISH SUR'ATLARI DINAMIKASI
 (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)


Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti oʻsish surʼatlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 % ga koʻpaygan.

TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI DINAMIKASI

(ming. AQSh. dollari)





TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(ming. AQSh. dollari)

2020-yil yanvar-mart oylarida import hajmi koronavirus (COVID-19) pandemiyasi sababli pasayishini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 59 472,6 ming. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 89,2 % ni tashkil etdi.

**2019-YIL
YANVAR-MART**

**2020-YIL
YANVAR-MART**



- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- Qora va rangli metallar

- Mashina va asbob-uskunalar
- Xizmatlar
- Boshqalar


Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga koʻra, 2020-yil yanvar-martida import qilingan tovarlar hajmi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 7 204,4 ming. AQSh dollariga kamaydi va 59 472,6 ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

IMPORT TARKIBI

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Ming. AQSh dollari	oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	Ming. AQSh dollari	oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	Ming. AQSh dollari	oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Import	59 472,6	89,2	100,0	26 209,4	167,8	100,0	33 263,2	65,2	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	23 102,6	6,0 m.	38,8	16 125,2	5,1 m.	61,5	69 77,4	10,0 m.	21,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	3 181,6	100,1	5,3	790,4	48,4	3,0	2 391,2	154,6	7,2
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	125,7	44,9 m.	0,2	125,7	-	0,5	-	-	-
Qora va rangli metallar	1 170,2	70,6	2,0	264,9	56,2	1,0	905,3	76,4	2,7
Mashina va asbob-uskunalar	17 066,3	47,8	28,7	1 524,4	138,5	5,8	15 541,9	44,9	46,7
Boshqalar	14 826,2	66,5	24,9	7 378,8	79,6	28,2	7 447,4	57,2	22,4


Import qilingan tovar va xizmatlarning oʻsish surʼatlari boʻyicha quyida keltirilgan maʼlumotlardan shuni koʻrishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar oyi davomida eng yuqori oʻsish surʼatlari kuzatilgan.

TOVARLAR VA XIZMATLAR IMPORTING O'QISH SUR'ATLARI DINAMIKASI
(o'qigan yilning shu davriga nisbatan, % da)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'qish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovar va xizmatlar o'qigan yilning shu davriga nisbatan 89,2 % ni tashkil qildi.

TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI



2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyatga 37 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Braziliya, Turkiya, Hindiston va Latviya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 52 004,9 ming. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 87,4 % ni tashkil qiladi.



Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam oʻrin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boʻlimi
tel.: (62) 224-65-09